

GENDER IDENTIFIKATSIYASI MUAMMOSI – IJTIMOY– PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Annayeva Nazokat Rajapbayevna – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

annayevanazokat@gmail.com

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

ПРОБЛЕМА ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннаева Назокат Раджапбаевна – доктор педагогических наук (DSc), доцент

Ташкентский международный химический университет

THE PROBLEM OF GENDER IDENTIFICATION AS A SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY

Annayeva Nazokat Rajapbayevna – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Tashkent International Chemical University

Tayanch soʻzlar: gender, identifikatsiya, insonning zamonaviy jamiyatda moslashuvi, insonning individual fazilatlarini va isteʼdodi, stereotiplar, sunʼiy munosabatlarni yuklamaslik, kuchlilik, mustaqillik, faollik.

Rezyume. Ushbu maqolada bugungi kunda gender identifikatsiyasi muammosi – ijtimoiy–pedagogik zarurat sifatida dolzarb muammoga aylanganligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga maqolada gender identifikatsiyasining tarixiy rivojlanish jarayoni batafsil muhokama qilinadi.

Ключевые слова: гендер, идентификация, адаптация личности в современном обществе, индивидуальные качества и способности человека, стереотипы, недопущение навязывания искусственных отношений, сила, независимость, активность.

Резюме. В данной статье анализируется то, что проблема гендерной идентификации в настоящее время превратилась в актуальную социально-педагогическую необходимость. Вместе с тем в статье подробно рассматривается исторический процесс развития гендерной идентификации.

Key words: gender, identification, adaptation of the individual in modern society, individual qualities and talents of a person, stereotypes, avoidance of imposing artificial relationships, strength, independence, activity.

Summary. This article analyzes how the problem of gender identification has become a relevant socio-pedagogical necessity in contemporary society. In addition, the article provides a detailed discussion of the historical development of gender identification.

Kirish. Gender nazariyasining vujudga kelishida bugungi kunda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan feminizm hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. XX asrning 70-yillarida Z.Freyd va T.Parsons gʻoyalari bilan sugʻorilgan anʼanaviy ijtimoiy fandan qoniqmagan feminizm nazariyotchilari oʻzlarining gʻarbona madaniy, tarbiyaviy, nazariy-uslubiy yondashuvlarini ifodalay boshladilar. Feministik gʻoyalarning madaniyat va taʼlim-tarbiyaning turli sohalariga kirib borishi nihoyatda jadal surʼatlar bilan davom etdi. 70-yillarning boshida hammani hayratga solgan bahs-munozaralar, genderga nisbatan yondashuvlar va qarashlar asta-sekinlik bilan jamiyat aʼzolari ongiga singa boshladi. Amalda jinsiy chegaralashga qarshi kurash BMTning xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi konvensiyasida (1979) ham eʼlon qilingan. Ushbu gʻoyalar YUNESKO faoliyati, shuningdek, koʻp sonli ijtimoiy, madaniy, taʼlim muassasalari, oʻqituvchilar va ijtimoiy soha xodimlari uchun qoʻllanmalar chop etadigan tashkilotlar manfaatlariga uygʻun boʻlib, jinsiy chegaralashga oid aqidalarni bartaraf etishga xizmat qila boshladi. Rivojlangan mamlakatlar oʻquv jarayonida gender farqlar va oʻxshashliklarni yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiladigan oʻquv kurslari ham yuzaga keldi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Simone de Bovuarning “ikkinchi jins” (1949) kitobida ifodalangan gʻoyalar zamonaviy gender nazariyasiga asos boʻlib xizmat qildi. Keyt Millett esa oʻzining “Jinsiy siyosat” (1970) kitobini yaratishda Simone de Bovuar qarashlariga tayandi.

“Feminizm nazariyalari” umumlashtiruvchi-tahliliy maqolasida P.Elliott va N.Mendell (2001) genderning

barcha asosiy yoʻnalishlarini tarixiy va zamonaviy nuqtayi nazardan koʻrib chiqqanlar.

R.Xofning “Gender tadqiqotlarning paydo boʻlishi va rivojlanishi” (2001) maqolasi gender nazariyasi va metodikasi shakllanishi xususida yaxlit tasavvur hosil qilishga koʻmaklashsa, K.Uest va D.Zimmerman izlanishlari mahsuli boʻlgan “Genderning yaratilishi” (2000) deb nomlangan fundamental tadqiqotning Ye.Zdravomislova tomonidan ingliz tilidan qilingan tarjimai ijtimoiy shakllantirish nazariyasi boʻyicha birlamchi manba bilan tanishish imkoniyatini beradi.

J.Lorberning “Jins ijtimoiy kategoriya sifatida” (2001) maqolasi esa istiqbolda gender tadqiqotlar bilan mustaqil shugʻullanish uchun zamin hozirlaydi.

Taʼlim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki maʼnaviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Gender taʼlimi orqali yoshlar oʻz jamiyatdagi oʻrni his etib, kelajakda zimmasiga katta masʼuliyat yuklashini anglab yetadi. Bir necha yillar davomida shakllangan gender tengsizliklari orasida qullik psixologiyasi bilan bogʻliq stereotiplar mavjudligini inkor etib boʻlmaydi. Shunday qilib, u yosh shaxsni shakllantirishda gender taʼlimining rolini ham aks ettirishi mumkin. Keyinchalik yuzaga kelgan tashqi munosabatlar, ayniqsa, Gʻarbga taqlid qilish, aslida, bizni gender tengsizligi holatiga olib keldi. Yildan yilga gender taʼlimi navqiron avlodning komil inson boʻlib shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Biroq, bu ayol yoki erkaklarga mutlaq erkinlik berish va ularni masʼuliyatdan ozod qilish degani emas, aksincha, ularning biologik va psixologik oʻziga xosligi va jamiyatdagi

mavqeyini saqlab qolgan holda, ularning tegishli burchlarini foydali darajada kuchaytirishi kerak. Bu yoshlarga gender ta'limining asosiy maqsadi va kutilayotgan natijalaridan biridir.

Jamiyatdagi ideal ayol yoki erkakning qiyofasi uning milliy an'analari: madaniyati, tarixi, dini, milliy mentaliteti bilan belgilanadi. Tashqi ko'rinish, yozish uslubi, ovoz identifikatsiyaning tarkibiy qismlaridir. Gender – erkak va ayolning maishiy dunyosi, amalda, axloq asosida amalga oshiriladi; u inkor etib bo'lmaydigan ijtimoiy tuzumning tizimli xususiyati – ong tarkibida doimo qayta tiklanadi.

Mamlakatimizda bu borada salmoqli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun” [1] munosib shart-sharoit yaratilayotganligi e'tiborga molikdir. Agar shaxs identifikatsiyasi shaxs hayotining mazmunini o'zga insonlarning hayot mazmuni bilan qiyoslash mexanizmi bo'lsa demak, identifikatsiya – bu aynan o'sha mexanizmning harakatlanishidir. identifikatsiya fenomenini o'rganishning murakkabligi shundaki, ushbu hodisa murakkab tahlillarni talab etuvchi juda ko'plab psixo-ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq. Shu boisdan, ushbu fenomenni mavjud nazariy tushunchalarini yanada chuqurroq tahlil qilish talab etiladi [2].

1963-yilda psixoanalist Robert Stoller “gender identifikatori” tushunchasini kiritdi. Gender o'ziga xosligi tushunchasi biologik va madaniy bo'limlardan iborat bo'lib, jins biologik jihatlari - genlar, gormonlar, asab tizimi, morfologiya, madaniy jihatlari- psixologik, ijtimoiy farqlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Stollerning 1968 yilda chop etilgan “Jins va Gender” kitobi muhim ahamiyatga ega [3]. Shundan so'ng bu tushuncha keng tarqalib, keng qo'llanila boshlandi. Konsepsiyaning keng qo'llanilishi feminizmni keltirib chiqardi. Turli jamiyatlarda ayollar erkaklarning hukmronligidan norozi bo'lib chiqqanlar. MDH mamlakatlarida bu tushuncha 1992-yildan beri qo'llanila boshlandi. Bu haqda birinchi marta “Ayollar va ijtimoiy siyosat” to'plamida tilga olingan. Mamlakatda ta'lim barcha uchun mezonlarga muvofiq kengaytirilgan.

Gender tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig'indisidir. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga, jins faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir. Hozirgi zamon jamiyatida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini belgilash, aniqlash va rivojlantirish gender yondashuv asosidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar munosabatlar asosida o'rganiladi [4].

XXI asrda uzluksiz ta'lim strategik ahamiyat kasb etib, shaxs va jamiyat hayotida asosiy mavqeni egallaydi. Shaxs faqatgina gender tenglik va o'ziga xoslik hisobga olinib tashkil etilgan ta'lim jarayonida olingan bilim yordamida uzluksiz texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirishi mumkin. Bu esa nafaqat mehnat qurollarining mukammallashuvini, balki yangi bilimlarni egallash qobiliyati va kasbiy faoliyatni puxta o'zlashtirishni talab qiladi.

Gender - jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir” [5]. Ruhshunoslar ham gender

tushunchasiga o'ziga xos tarzda yondashganlar: “Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko'rinishidir”. Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug'ma, qaysi biri esa ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to'g'risida keskin munozaralar bormoqda. O'g'il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma'lum bo'ladi. Bu farqlar orasida psixologlar qizlar o'g'il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta'kidlashadi. O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda o'ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. “Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar me'yoriy tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda “erkaklarga oid” va “ayollarga oid” bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar paydo bo'ladi” [5]. Pedagogik ma'noda gender – o'g'il va qiz bolalarning murakkab ta'limiy sotsiomadaniy birligi bo'lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Eng avvalo, gender tadqiqotlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan masalalarning qo'yilishini tasavvur etish lozim. Bu jarayonda gender tadqiqotlar xotin-qizlar haqidagi tadqiqotlarning mantiqiy davomi ekanligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan, “jinslar nisbati” tahlilning fundamental kategoriyasi deb tan olinishini talab etish ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy va institusional shart-sharoitlardan ayri holda muhokama etilishi mumkin emas.

Jins – gender tizimining mavjudligiga ilk bor antropolog Geyl Rubin e'tibor qaratdi. U jamiyat va jinslar farqlanishini tavsiflashga qaratilgan yangicha yondashuvni ishlab chiqishga harakat qildi. Shunday qilib, biologik jins (sex)ga tur (gender) shaklidagi jins qarama-qarshi qo'yildi [6]. Ushbu qarama-qarshilik asosida jinsiylikning ijtimoiy-madaniy shakllanishiga e'tibor qaratish kerak edi.

Madaniy-antropologik tadqiqotlar turli jamiyatlarda erkaklar va ayollarga nisbatan beriladigan tavsiflarning xilma-xilligiga e'tibor qaratdi. Bir tomondan, ushbu ishlar shu paytgacha shubhasizdek bo'lib tuyulgan biologik tafovutni shubha ostiga qo'ydi, natijada xotin-qizlar va erkaklar ijtimoiy ahvolidagi farqni ularning jismoniy belgilari bilan izohlashga o'rin qolmadi. Ikkinchi tomondan, shu narsa ayon bo'ldiki, ayollarga doir konsepsiyalardagi farqlarga qaramay, har qanday jamiyatda ayollarga erkaklarga qaraganda pastroq “o'rin” ajratilar ekan.

O'tgan asrning oxirlarida antropologiya bo'yicha chop etilgan ikkita to'plam xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoliga yangi qiziqish bilan qaradi.

“Jins va gender” o'rtasidagi farq Karin Xauzen tomonidan “jinslar xarakterlarini qarama-qarshi qo'yishning salbiy oqibatlarini” sifatida ifodalangan [7]. Bu tarzda qarama-qarshi qo'yish shunga olib keldiki, turli jinsiy vazifalar erkaklar va ayollar “tabiiy” xususiyatlarining ifodasi sifatida o'rganildi va qonunlashtirildi. U, shuningdek, “tabiiy” jins erkaklar va ayollarga ajratilgan ijtimoiy vazifalar o'rtasida bevosita sababli bog'lanish mavjud degan fikrni ilgari surdi.

Muhokama. Jinslar nisbatini uning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan ifodalash uchun biologik tafovutlarga

asoslangan jinslararo farqlashdan voz kechishga to'g'ri keldi. Bunga, eng avvalo, erkaklar va ayollar jinsiy rollarining tubanligi va ayni paytda nafaqat patriarxal hukmronlik tizimining qonunlashtirilishiga olib kelishi, balki uning tabiatan berilgan deb hisoblanishi sabab bo'lgan edi. Buning o'rniga biologik belgilangan jins bilan jinsli vazifaning muayyan jamiyat doirasida farqlanishi (gender) go'yoki tabiiy bog'lanish sababli bunday aloqadorlikni yo'q qilishga yordam berishi kerak, deb hisoblangan. Bunday yondashuv shuni anglashga yordam berishi kerakki, ayollar va erkaklarga xoslik tushunchalari madaniyat va ta'lim bilan belgilanadigan ko'p qirrali hodisadir. Biologik jihatlagagina e'tibor qaratish nafaqat mazkur turli-tumanlikni tasvirlash imkonini beradi, aksincha, uni bo'rttirib ko'rsatadi. Jinslarning "mohiyatiga" oid, "ayollik va erkaklik timsollari" deya ta'riflanadigan, erkaklar va ayollarga turlicha ta'sir ko'rsatadigan va natijada ular tomonidan turlicha qabul qilinadigan, ularga istalgan yoki malol keladigan muayyan hodisalar o'tmishda qoralangan. Buning asosida biologik belgilangan jins haqidagi ma'lumotlar ushbu kategoriyaning mavjudligi va ijtimoiy vazifalari to'g'risida mulohaza yuritishga to'sqinlik qiladi.

Agar jinslarni farqlashga qaratilgan e'tibor antropologik, biologik yoki psixologik, pedagogik o'lchovlarga emas, madaniy tasniflashga bog'liq bo'lganida edi, unda jinslarning bir-biriga munosabati ham o'zgaras, tabiiy tartibning ifodalanishi yoki reprezenatsiyasi deb qabul qilinmas edi. Jinslarning o'zaro qiyoslanishi jamiyat va ta'lim tizimidagi qoidalar bilan bog'liqdir.

Gender tushunchasini so'z, belgi, u bildirgan ma'noga ishora qiluvchi, uni ko'rsatuvchi sifatida idrok etish noto'g'ridir. Gender "tabiiy" jins bilangina belgilanmaydi. Bu o'rinda gap individum va jamiyatning munosabatiga asos bo'lib xizmat qiluvchi hamda ikki biologik jinsning shakllangan va barqaror tafovutidan iborat bo'lgan ayrim munosabatlar reprezenatsiyasi xususida bormoqda.

Erkak va ayollarning o'ziga xos farqlariga tayanish o'rniga ushbu tushuncha mazkur farqlarga tegishli bo'lgan ma'nolar xususida bosh qotirishga majbur qiladi. Genderni tushunish uchun ushbu yangi konsepsiyani ko'p asrlilik «jinslar falsafasi»dan va xotin-qizlar haqidagi tadqiqotlardan farqli tarzda o'g'il va qiz bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalarining ijtimoiy pedagogik ahamiyati bilan belgilash lozim.

Bir qarashda, gender bilan jinsiy xususiyatlar o'rtasida umumiy jihatlarni topish mumkin. T.Parsons ayollar va erkaklarning turli ijtimoiy vazifalari asosida turgan biologik xususiyatlar bilan izohlanmaydigan holatlarni tasvirlashga harakat qilgan. Psixoanalizm tomonidan kiritilgan, bir paytning o'zida erkaklar va ayollar o'xshashligini shakllantirishga yordam beradigan oiladagi Edin uchburchagi tushunchasi turli gender vazifalarning farqlanishini izohlashga ko'maklashadi. U taklif etgan farqlash jarayoni oilada instrumental (erkaklarga oid) va ekspressiv (ayollarga oid) vazifalarni ilgari surdi. Shu orqali u jinsiy vazifalar konsepti asosida shaxs va ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida aloqa o'rnatishga harakat qildi.

XX asrning 60-yillarida tobora yaqqolroq namoyon bo'lgan, Beti Fridan "ayollik siri" deya ta'riflagan xotin-qizlarning belgilangan vazifalariga qarshi e'tiroz, toki u hokimiyat tizimidagi tegishli nuqtai nazarlar tanqidi sifatida anganmaguncha tushunarsiz bo'lib qolaverdi [8]. Shu nuqtayi nazardan Robert Konnellning asosli fikriga ko'ra,

jinsiy vazifalar nazariyasi "sodir bo'layotgan o'zgarishlarni jinslararo nisbat ichidagi dialektika deb izohlashga imkon qoldirmagan" [9]. Masalaning yangicha qo'yilishi ilk bor vazifalar nazariyasini tasdiqlovchi shaxs va uning vazifasi farqlanishi, shuningdek, erkaklar va ayollar xususiyatlarining tabiiyligi shubha ostiga olingan paytda yuzaga keldi. Bular gender nazariyasini vujudga keltirgan dastlabki tadqiqotlardir.

Natijalar. Genderning tahlil kategoriyasi sifatida kiritilishi erkaklar va ayollar o'rtasidagi shubha ostiga olingan qarama-qarshilikning buzilishi ehtimolidan va ayni paytda ushbu qarama-qarshilikka ijtimoiy, madaniy va siyosiy voqelikdagi bo'ysundirish mexanizmi sifatida jiddiy munosabatdan dalolat berar edi.

Gender atamasi o'g'il va qiz bolalar (erkaklar va ayollar) orasidagi farq tushunchasini anglatadi. Mazkur so'zning ijtimoiy ma'nosi esa aksariyat hollarda o'g'il va qiz bolalarning anatomik farqlarini ifodalaydi.

Antropolog Margaret Mid "gender farqlar va o'xshashliklarning biologik emas, balki ijtimoiy, psixologik hamda pedagogik jihatdan hisobga olinishi lozimligini ta'kidlab kelmoqda" [10].

Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va nuqtai nazarlarning xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani ajratib ko'rsatish mumkin. Bu konsepsiyalar quyidagilardan iborat:

Genderga ijtimoiy jihatdan bo'lgan yondashuv quyidagilardan iborat bo'ladi: biologik nuqtai nazardan jins muayyan jamiyatda qaror topgan jinsga xos bo'lgan vazifalar va o'g'il hamda qiz bolalarning o'ziga xos xatti-harakatlari, o'zaro hamkorligining ijtimoiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman ko'rinishlaridir. Ta'kidlash lozimki, gender munosabatlar tahlili mohiyatan jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy sohalaridagi jinslararo munosabatlarining aniq manzarasini ifodalaydi.

Gender farqlar bilan bir qatorda gender o'xshashliklarni ham hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Gender o'xshashlik – o'g'il va qiz bolalar orasidagi aqliy-intellektual, madaniy, ma'naviy, ijtimoiy o'xshashlikni ifodalaydi. Qiz va o'g'il bolalar orasidagi o'xshashlik ularning o'zaro hamkorligi jarayonida vujudga keladigan umumiy xususiyatlarning pedagogik-psixologik interiorizatsiyasiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender jinsga bog'liq emas, balki ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit yordamida vujudga keladigan o'xshashliklarga bog'liq.

Gender farqlar shuni ifodalaydiki, unda biologik o'ziga xoslik ijtimoiy-pedagogik mohiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarni ijtimoiy-pedagogik tasniflash vositasi bo'lib xizmat qiladi. rivojlangan jamiyatlarda anatomik jins genderning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa. Bugungi kunga qadar tadqiqotchilar jinsiy o'xshashlikka erishishning turli modellarni taklif qilganlar. Shunday konsepsiyalardan biri Sandra Bem tomonidan ishlab chiqilgan. Insonlar yangi axborotni, xususan, o'zlari haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirishda ushbu modellarning kognitiv imkoniyatlaridan bir qadar unumli foydalanish imkoniyatiga egadirlar. xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish va shaxsiy tajribani kundalik faoliyatda qo'llash maqsadida o'g'il va qiz bolalarning ongini ta'lim jarayonida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2016.
2. Маратов Т.Ғ. Шахс идентификацияси ижтимоий-психологик феномен сифатида. // Academic research in educational sciences. Volume 2 | Issue 4 | 2021. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. – P. 848.
3. Stoller Robert J. Sex and gender: on the development of masculinity and femininity. – New York: «Science House», 1968.
4. Курбонова Г., Абдуллаева З. Гендер ёндашув асосида талаба қизларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш назарияси. // Заонавий таълим. / Современное образование, 2014, №6, 39-6.
5. Мадумарова З. Янгиланаётган Ўзбекистонда гендер муаммоларини бартараф этишда ахлоқий қадриятларнинг ўрни. // Ta’lim fidoylari. 2022. May. 263-6.
6. Рубин Г. Обмен женщинами: заметки о «политической экономии» пола. Хрестоматия феминистских текстов. Переводы; под ред. Е.Здравомысловой, А.Тёмкиной. – Санкт-Петербург: Дмитрий Буланин, 2000. – С. 89-139.
7. Hausen Karin. The Polarization of ‘Sex Characters’: An Analysis of the Discourse on the Disimilarity of the Sexes. // Renate Bridenthal and Claudia Koonz (eds.), Women in European History. – Boston: Houghton Mifflin, 1976.
8. Фридан Б. Загадка женственности. – Москва: АСТ, Neoclassic, 2022.
9. Connell R.W. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. – Stanford, CA: Stanford University Press, 1987.
10. Mead Margaret. Sex and Temperament in Three Primitive Societies. New York: «William Morrow & Company», 1935.